

**O'zbekiston Aloqa va Axborotlashtirish Agentligi
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
Samarqand filiali**

Informatika va AT kafedrası

Tizimli dasturiy ta'minot fanidan:

REFERAT

Mavzu: Dos ning ichki buyruqlarini qo'llanilishi bo'yicha YOTEK.

**Bajardi:304-g.Umurzoqov.A.Q
Ilmiy rahbar: Nazarov.B.**

Samarqand-2011

Mundarija:

Kirish.....
I Operatsion tizim tushunchasi.....
II MS DOS Operatsion tizimi.....
III Faylar tizimi.....
IV Kataloglar.....
V Fayllar va kataloglar bilan ishlash..
Xulosa.....
Foydalanilgan adabiyotlar.....

Kirish

Bugun komp'yuter sistemasini undagi qurilmalar, katalog va fayllarni o'ziga xos ierarxik struktura sifatida taqdim etadi. Ierarxiyani tashkil etuvchi elementlar ob'ektlar deb ataladi. Ierarxiyadagi har bir ob'ekt o'z nishoniga ega. Nishon ob'ektni oson topish uchun xizmat qiladi. Bundan buyon agar matnda noaniqlik kelib chiqmasa "ob'ekt nishoni" ("papka nishoni", "hujjat nishoni", "yorliq nishoni" va hakozo) so'z birikmasi o'rnida "ob'ekt" ("papka", "hujjat", "yorliq", va hakozo) so'zlardan foydalanamiz. Har bir ob'ekt ustida uning tipiga mos ravishda turli ishlarni (amal) ni operatsiyani amalga oshirish mumkin. Ob'ekt ustida bajarishi mumkin bo'lgan ishlar amallar ro'yxatini ob'ektning kontekst menyusidan bilib olish mumkin. Ob'ektning kontekst menyusini chaqirish uchun sichqonning yordamchi tugmasini ob'ekt nishoni ustida bosish lozim.

Ierarxiyadagi ob'ektlarni quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Operatsion tizim tushunchasi

Kompyuter ishga tushirilganda odatda uning qurilmalari bilan bir qatorda maxsus dastur ishga tushadi. Maxsus dastur foydalanuvchi bilan kompyuter orasidagi muloqotni ta'minlaydi va bu dasturga **operatsion tizim** deyiladi. Hozirgi kunda turli xil operatsion tizimlar mavjud bo'lib, ular kompyuter dasturlari orasida eng murakkabi bo'libgina qolmay, kompyuterni nafaqat amalda ish bajarishga, balki o'zi bajarayotgan ishlarni ham nazorat qilishga majbur etadi.

Operatsion tizim (OT) – Elektron hisoblash mashinalari zahiralarini boshqarish, amaliy dasturlarni chiqarish va ularning tashqi qurilmalar, boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqasini amalga oshiruvchi, shuningdek foydalanuvchining kompyuter bilan muloqotini ta'minlovchi dasturiy vositalar yig'indisidir. OT foydalanuvchiga hisoblash tizimi bilan qulay muloqot qilish usulini (interfeys) taqdim etadi. Interfeys bunda dasturiy va foydalanuvchi bo'lishi mumkin.

Dasturiy interfeys – hisoblash tizimi doirasida qurilma va dasturlar o'zaro ta'sirini ta'minlovchi vositalar yig'indisidir.

Foydalanuvchi interfeys– foydalanuvchining dasturiy yoki Elektron hisoblash mashinalari bilan o'zaro ta'siridagi dasturiy va apparat vositalaridir.

Har bir kompyuter albatta operatsion tizim turkumiga ega bo'ladi, ularning har biri uchun amaliy dasturlarning o'z turkumi yaratiladi. Operatsion tizimlar quyidagi omillar bo'yicha tavsiflanadi:

– Bir vaqtda ishlaydigan foydalanuvchilar: bir (kishi) foydalanuvchi, ko'p (kishi) foydalanuvchilar soniga ko'ra;

- Tizim boshqaruvi ostida bir vaqtda foydalaniluvchi jarayonlar: bir vazifali, ko'p vazifalilar soniga ko'ra;

- Qo'llab-quvvatlovchi jarayonlar: bir protsessorli, ko'p protsessorlilar soniga ko'ra;

- OT kodi razryadliliği: 8 razrayadli, 16 razrayadli, 32 razrayadli, 64 razrayadliliğiga ko'ra;

- Interfeys turi: buyruq (matnli) va obektli-yo'naltirilgan (grafik)ligiga ko'ra;

- Foydalaniluvchining EHMga kirishi turi: paketli qayta ishlash, vaqt bilan bo'linishi, real vaqtga ko'ra;

- Zahiralaridan foydalanish turi: tarmoqli, lokalliligiga ko'ra.

Hozirgi kunda operatsion tizimlarning DOS; OS/2;UNIX; Windows oilalari keng tarqalgan. DOS oilasining operatsion tizimlari bir vazifali bo'lib, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- EHMli interfeys foydalanuvchi kiritadigan buyruq yordamida amalga oshiriladi;

- Tizimning EHMning boshqa turlariga o'tishini soddalashtiradigan tuzilma mavjudligi;

- Operativ xotiraga kirish hajmining uncha katta emasligi (640 Kbayt);

DOS operatsion tizim oilalarining jiddiy kamchiligi ShK va OT zahiralariga beruxsat kirishdan muhofaza vositalarining yo'qligidir.

2.MS DOS Operatsion tizim

MS DOS operatsion tizimi IBM firmasi buyurtmasiga muvofiq Microsoft firmasida 1981 yilda yaratilgan. Uning asosini IO.SYS va MS DOS.SYS diskli fayllari tashkil etadi, ular kompyuterning doimiy xotirasida joylashgan.

MS DOS operatsion tizimi yuklanish jarayonida ekranda

Starting MS DOS...

xabaripaydo bo'ladi va ekranda DOS ning taklifnomasi C:/> paydo bo'ladi.

MS DOS operatsion tizimi quyidagi vazifalari bo'lgan kompleks dasturlarni o'zida namoyon etadi:

- dasturni bajarishni boshqarish;
- Shaxsiy kompyuterlar zahiralari boshqarish;
- Protsessorning kompyuterlar tashqi qurilmalari bilan axborot almashuvini tashkil etish;
- Tashqi xotirada axborotni saqlash va disklarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish.

Bu operatsion tizim diskda saqlanadi, shu tufayli u diskli operatsion tizim nomini olgan, inglizcha DOS – “Disk Operating System” deb ataladi. DOS dasturi operativ xotiraga magnit diskdan kerakli darajada jo'natiladi.

Hozirgi paytda ShKlar uchun OTning bir nechta oilasi: MS DOS, Windows 9x, Windows XP, PS DOS, DR DOS, UNIX va OS/2 keng ommaviylashgan va standartga aylangan. IBM PC – mos mashinalarda hammadan ko'proq MS DOS va unga o'xshash DR DOS va PS DOSdan foydalaniladi. MS DOS Microsoft firmasida, DR DOS Digital Research. PS DOS - IBM firmasida ishlab chiqilgan.

Foydalanuvchi uchun bu OT lar o'rtasida biron-bir jiddiy farq yo'q (agar ish faqat DOS muhitida olib borilsa). Hozirgi paytda MS DOS 6.22.versiyasi eng ko'p tarqalgandir.

MS DOS quyidagi funksional tizimlardan tashkil topgan:

- fayllar tizimi;
- tashqi qurilmalar drayverlari;
- buyruqli protsessor.

MS DOS operatsion sistemasi.

Kompyuterlarning dasturiy ta'minoti 2 guruhdan iborat bo'lib, sistemaning ishlashi bilan bog'liq bo'lgan *sistema* va *amaliy* dasturlardir.

Sistema dasturlari kompyuterlarning ishlashi uchun zarur dasturlar bo'lib, u kompyuterning ishlashini boshqaradi, uning turli qurilmalari orasida muloqotni tashkil qiladi. Kompyuterdan foydalanishni ososlashtiruvchi sistema dasturlarining yadrosi «*operatsion sistema*» dir.

«*Operatsion sistema*» tushunchasiga aniq ta'rif berish qiyin. Chunki *sistema* so'zi turli soha mutaxassislari tomonidan keng qo'llaniladi va turlicha talqin qilinadi.

Operatsion—so'zi esa to'gridan-to'g'ri tarjimada «*amal*» degan ma'noni anglatmada, uning tub ma'nosini bu so'z bilan aniq tavsiflab bo'lmaydi. Xo'sh unda, «*operatsion sistema*»ni qanday tushunish kerak?.

Foydalanuvchi – shu sistemada ishlashi mumkin bo'lgan shaxsdir. Kompyuter ishga tushurilganda, uning qurilmalri bilan bir qatorda maxsus dastur ham ishga tushadi. Ana shu maxsus dastur foydalanuvchi bilan kompyuter o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi va bu muloqat «*operatsion sistema*» (OS) deb yuritiladi.

Operatsion sistemani diskli operatsion sistema yoki *DOS* deb ham yuritiladi. Ta'kidlash lozimki, kompyuterlarning taxnikaviy holatiga ko'ra ulardagi operatsion sistemalar turlicha bo'ladi, shunday bo'lsada ularning vazifasi yagona–ichki va tashqi qurilmalarning birgalikda ishlashini ta'minlashdan iborat.

Bizga ma'lumki, foydalanuvchi bilan kompyuter o'rtasidagi muloqotni operatsion sistema (OS) ta'minlaydi. Shu bois OS interfeysi qancha qulay bo'lsa, foydalanuvchining kompyuter bilan ishlashi shuncha oson va samarali bo'ladi. Biz avvalgi mavruzalarda kompyuterlarning tuzilishi, ichki va tashqi qurilmalari bilan tanishganmiz. Bu qurilmalar kompyuterning texnik ta'minoti deyiladi. Lekin, kompyuter ishlashi uchun texnik ta'minotdan tashqari dasturiy ta'minot (kompyuterdagi barcha dasturlar) ham zarur. Kompyuter tizimini tashkil etuvchi bu ikki vositaning o'zaro aloqasi (bog'lanishi, munosabati, o'zaro ta'siri) interfeys deyiladi.

Hozirda turli xil OS lar (UNIX, MS DOS, PC DOS, OS/2, Windows-9X va boshqalar) mavjud bo'lib, ularni tashkil etuvchi dasturlar tizimini MS DOS (Microsoft Disk Operation System-Microsoft firmasida yaratilgan diskli *operatsion sistema*) misolida ko'rib chiqamiz.

(Dasturlar yaratuvchi) Microsoft kompaniyasining asoschisi va prezidenti, mul'timilliarder Bill Geyts 16 razryadli kompyuterlarni yaratish g'oyasini ilgari suradi va IBM firmasi bilan ishlashga rozilik bildiradi. Shundan keyin IBM firmasidan Pop Allen va Geyts shu firmaning MITS Altair kompyuteriga moslab BASIC (Beysik) dasturlash tili uchun tarjimon (kompilyator) dastur yozadi. 1981 yil avgust oyida operatsion sistemaning ko'p g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan MS DOS OS ni yaratdi. Asosan MS DOS 64 kbayt xotiraga ega bo'lgan kompyuterlarga moslashtirilgan. MS DOS ning o'zi 8 kbayt xotirani egallaydi.

Bill Geyts va Pop Allenlar MS DOS ni rivojlantirishni davom ettiradi va MS DOS ning 1.1, ... , 1.25, 2.0, ... , 2.11 versiyalarini taklif etadi. 1984 yilda 3.0 versiyali MS DOS ni IBM PC AT shaxsiy kompyuteriga 80286 mikroprotsessoriga asoslangan 5.25 dyumli diskovodda ishlaydigan OS ni

yaratdi.1986 yilda Compaq Computer firmasi 80386 mikroprotssessorli IBM kompyuterini ishlab chiqaradi. Shu yillar davomida MS DOS ni kengaytirish davom etadi va 1987 yil MS DOS-3.3 versiyasi yaratildi. MS DOS ning imkoniyatlari barchani qoniqtira boshladi. Bu operatsion sistema turli klavishlar kombinatsiyasidan iborat buyruqlar bilan ishlashga muljallanganiga qaramay, foydalanuvchilar uchun juda qulaydir.

MS DOS quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Qurilmalarni boshqarish (printer, klaviatura, disk yurituvchi va boshqalar);
- Dasturlarni boshqarish (yuklash, bajarish, va ...);
- Buyruqlar va ko'rsatmalarni bajarish.

MS DOS asosan quyidagi qismlardan iborat:

- Ma'lumotlarni xotiraga kiritish va chiqarish dasturi (BIOS deb nomlanadi);
- OS ni faollashtiruvchi dastur (Boot Record);
- Ma'lumotlarni kiritish va chiqarish sistemasini kengaytirish moduli (BIO.com);
- Amallar bajarishda yo'zaga kelishi mumkin bo'lgan o'zilishlarni tahlil qilish moduli (DOS.com);
- Buyruq protssessori (Command.com).

Buyruq protssessori (BP) – sistemali diskning ixtiyoriy joyida joylashishi mumkin. BP ning asosiy vazifasi foydalanuvchilarning DOS ga yuborilgan buyruq yoki ko'rsatmalarini qabul qilish, tahlil qilish va kerak bo'lganda, bajarish hamda foydalanuvchi dasturlarining buyruqlarini qayta ishlashdan iborat.

MS DOS operatsion sistemasi bilan ishlash

MS DOS tuzilishi. MS DOS taklifi

MS DOS bilan foydalanuvchi o'rtasida muloqot komandalar orqali bo'ladi. MS DOS ni bundan keyingi hollarda dos deb yuritamiz. DOS komandasi komanda nomi va parametrlardan tashkil topadi.

MS DOS ishga tayyor bo'lganda foydalanuvchini muloqotga qquyidagicha **taklif** qiladi:

A> yoki C:\>

Bu **MS DOS ning taklifi** joriy disk va katalog haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi.

Masalan:

C:\ - C disk, tub katalog,

C:\EXE> - C: diskdagi EXE katalogi tushuniladi.

DOS taklifi satri komandalar satri deb ataladi.

Komandalarni kiritish.

Komandani kiritish uchun uni komandalar satriga klaviaturadan terib, [Enter] klavishini bosish kerak.. DOS komandalari nomi vat parametrlari lotin alifbosida teriladi.

Komandani kiritishda qquyidagi tugmachalardan xatolarni tug'rilash uchun foydalanish mumkin:

[Del] - joriy belgini olib tashlaydi,

[Backspace] - kursordan chapdagi belgini uchiradi,

[Ins] - almashtirish rejimini yokadi yoki uchiradi,

[Esc] - komandani butunlay uchiradi,

[F3] - komandalar satriga avvalgi komandani chaqiradi.

Diskda faylni tez topish

ff (file find - faylni topish) programmasi diskda faylni topishga yordam beradi. Buning uchun faylning nomini berishingiz lozim, ya'ni

ff <faylning nomi>

Masalan: ff Bank.doc - komandasi diskdagi barcha kataloglardan Bank.doc faylini topib beradi.

Masalan:

Joriy diskni o'zgartirish

Joriy diskni o'zgartirish uchun disk nomidan keyin (:) qo'yiladi, ya'ni:

a: - A: diskka o'tish uchun,

b: - V: diskka o'tish uchun

c: - C: diskka o'tish uchun.

Katalogni ko'zdan kechirish

Katalog ruyxatini chiqarish uchun **dir** komandasidan foydalanish mumkin. Uning formati:

dir [Disk:] [Yo'l\] [Fayl nomi] [/P] [/W]

Agar fayl nomi berilmasa, katalogning mundarijasi chiqadi. Bunda diskdagi har bir katalog va fayllar nomi, hajmi, yozilgan kun va vaqti haqidagi ma'lumot ekranga chiqadi.

Bunda: /P - belgisi mundarijani ekran bo'ylab varaqlab chiqaradi;

/W - belgisi faqatgina fayllarning nomini chiqaradi.

Ruyxat oxirida fayllar soni, egallangan va bo'sh joy hajmlari keltiriladi.

Katalogni tashkil qilish

Katalogni tashkil qilishi uchun md ("make directory" - katalog ochish) komandasidan foydalaniladi. Uning formati:

md [Disk:] [Yo'l\]

Masalan:

md XXX -XXX katalogini joriy katalogda hosil qiladi.

md a:\WORK - A: diskda WORK katalogini hosil qiladi.

Kataloglar

Kataloglar deb boshqa fayllar haqida ma'lumotlar saqlanadigan maxsus faylga aytiladi. «Fayl katalogga kiradi» yoki «fayl katalogda turibdi» iborasi, bu fayl haqidagi ma'lumotlar mazkur katalogda turibdi degan ma'noni anglatadi. Katalogni direktoriya deb ham atashadi (inglichcha directory – ma'lumotnoma, ko'rsatkich).

Katalog har biri quyidagilardan iborat bo'lgan elementlardan tashkil topgan:

- faylning to'liq nomi;
- faylning yaratilishi yoki oxirgi o'zgarish vaqti va sanasi;
- faylning baytlardagi hajmi;
- faylning atributlari;
- diskning fayl tuzilishi haqidagi ayrim boshqa ma'lumotlari.

Har bir diskda doimo uni formatlash jarayonida yaratiladigan bosh yoki ildiz katalog mavjud. Ildiz katalogida ro'yxatdan o'tkazilgan fayllar soni disk turi va sig'imiga bog'liq. Ildiz katalogdagi ko'plab miqdordagi fayllar foydalanuvchi uchun noqulay va fayllarni izlashni sekinlashtiradi. Bundan tashqari, bosh katalog sig'imi diskda saqlashga tegishli barcha fayllar uchun etarli bo'lmay qolgan vaziyat yuzaga kelishi mumkin. Shu bois MS DOS diskda kataloglarning pog'onali tizimini yaratish imkonini taqdim etadi. Bu tizimda nafaqat odatdagi fayllar, balki boshqa tobe kataloglar (kichik katalog) ham katalog elementi bo'lishi mumkin. Kichik katalogdagi elementlar soni

faqat disk sig'imida cheklangan. Odatda kichik kataloglar qisqacha aytish uchun oddiy qilib kataloglar deb ataladi.

Ildiz katalog (teskari slesh) ramzi bilan ifodalanadi. Ildiz katalog har bir diskda – yagona va dasturiy vositalarda chiqarib tashlanishi mumkin emas.

Ildiz kataloglarni nomlash qoidalari fayllarnikiga to'g'ri keladi, biroq kengaytirish odatda foydalanilmaydi.

Har bir disk o'z tuzilmasini saqlaydi, u quyidagi qoidalar bo'yicha shakllanadi:

- fayllarda turli kataloglarda bir xil nomlar bo'lishi mumkin, biroq bir katalogda fayllar nomi farqlanishi lozim;
- fayllar va kataloglar ketma-ketligi tartibiga katalogda hech qanday o'zgarishlar kiritilmaydi;
- kataloglarning kirish chuqurligi kataloglar yo'li uzunligidagi ramzlar miqdori bilan cheklanadi.

MS DOS kataloglar daraxti deb nomlanadigan pog'onali tuzilmani hosil qiladi. U to'ntarilgan daraxtga o'xshash bo'lib, bunda bosh katalog daraxt «ildiz»ga o'xshatilgan (bosh kataloglarning ikkinchi nomi – «ildiz» , shundan olingan) boshqa kataloglar shaxslarga qiyoslashgan.

Fayllar va kataloglar bilan ishlash

MS DOSda disketlarda fayllar tizimini tashkil etish UNIX tizimi kabi pog'onali xususiyatga ega. Yangi disket o'rnatilishi bilan bosh katalog joriy katalogga aytiladi. Bosh katalogda fayllardan tashqari kiritilgan kichik katalog bo'lishi, ulardan har biri 'z navbatida fayllar va kichik kataloglarga ega bo'lishi mumkin. Fayl va kataloglar soni disketning faqat ish makoniga qarab cheklanishi mumkin.

Tizim joriy katalog fayllari bilan ishlash va bir katalogdan boshqasiga o'tish imkonini beradi.

Kataloglarlar bilan ishlash uchun MK DIR, CH DIR, PATH, TREE, RM DIR ichki buyruqlaridan foydalaniladi.

MKDIR buyrug'i. Joriy katalogdan kichik katalogning MKDIR, (MD) buyrug'ini yaratish mumkin:

A>MD PODKAT

Bu buyruq bo'yicha PODKAT nomli kichik katalog yaratiladi. Kichik katalog nomi nuqta bilan ajratiladigan ikki tarkibiy qismdan tashkil topishi (ikkinchi qism – zarur emas) va fayl nomlarini hosil qilish qoidalariga muvofiq tuzilishi mumkin: uning birinchi qismi sakkiztadan ko'p bo'lmagan, ikkinchi – uchtadan ko'p bo'lmagan ramzlardan tashkil topadi.

CHDIR (yoki CD) buyrug'i. Kichik kataloga o'tish uchun CHDIR (yoki CD) buyrug'idan foydalaniladi:

A>CD PODKAT

1. Bu buyruq bo'yicha PODKAT nomli katalogi joriyga aylanadi, u avvalgi joriy katalog uchun kichik kataloga aylanadi.

MS DOS operatsion sistemasining fayllar bilan ishlash buyruqlari

Matnli faylni tashkil qilish

Matnli faylni tashkil etish uchun:

copy con <faylning nomi>

komandasi va fayl satrlari klaviaturadan kiritiladi. Har bir satr [Enter] bilan, oxirigisi esa, [F6] + [Enter] bilan tugatiladi. Natijada ekranda quyidagi javob chiqadi:

1 file(s) copied (1 ta fayl nusxasi ko'chirildi)

va diskda fayl nomi hosil bo'ladi.

Masalan: copy con sss.doc - joriy katalogda sss.doc fayli hosil bo'ladi.

Faylni o'chirish

Faylni doimiy xotiradan o'chirish uchun del (delete - o'chirish komandasi quyidagi formatda beriladi:

del [Disk:] [Yo'l\] [faylning nomi] * Faylning nomida “*”, “?” belgilardan foydalanish mumkin.

Masalan:

Agar katalogning barcha fayllarini uchirmoqchi bo'lsangiz, del *.* komandasi kiritiladi. Kompyuter bunga qquyidagicha javob beradi:

Are You sure (Y/N)? (Ishonchingiz komilmi?)

Fayllarni o'chirish uchun “Y”, aks holda “N” kiritiladi.

Yoki “del sss.doc” komandasini kiritsangiz, joriy katalogdagi sss.doc fayli uchiriladi.

Faylni qayta nomlash.

Faylni qayta nomlash komandasi ren (“rename” - qayta nomlash) deb yuritiladi. U quyidagicha amalga oshiriladi:

ren [Disk:] [Yo'l\] Faylning nomi Faylning yangi nomi

Masalan:

ren mmm.doc nnn.txt - komandasi joriy katalogdagi mmm.doc faylini nnn.txt fayliga almashtiradi.

Faylning nusxasini ko'chirib o'tish

Faylning nusxasini ko'chirish quyidagi komanda orqali bajariladi. Uning nomi copy ("copy" - nusxa ko'chirish) deb ataladi. Uning formati quyidagicha:

copy<Faylning nomi><Faylning nomi>

yoki

copy<Faylning nomi>[Katalog nomi]

Birinchi komandada nomi ko'rsatilgan faylning nusxasi ko'rsatilgan nom bilan ko'chiriladi.

Ikkinchi komandada faylning nusxasi ko'rsatilgan katalogga ko'chiriladi.

Faylning nusxasini printeriga olish uchun:

copy<Faylning nomi> prn

komandasini kiritish yetarlidir.

Masalan:

copy mmm.doc nnn.txt - joriy katalogda mmm.doc faylining nusxasi nnn.txt faylini hosil qiladi.

copy a:\ *.* - A diskning tub katalogidagi barcha fayllar nusxasini joriy katalogga ko'chiradi.

Fayl matnini ekranga chiqarish

Fayl matnini ekranga chiqarish uchun:

type <Faylning nomi>

komandani kiritish zarur. Natijada ekranda fayl matni hosil bo'ladi.

Faylar tizimi

F a y l- bu, axborot tashuvchi mashinaga taqdim etilgan ma'lumotlarning nomlangan yig'indisi.

Fayl tushunchasi asosan disklarda saqlanuvchi ma'lumotlarga qo'llaniladi va shu bois odatda fayllar axborot tashuvchilarda xotira uchastkasi bilan tenglashtiriladi. Fayllarda saqlanuvchi ma'lumotlar – bu algoritmik yoki dasturlarni bajarish natijalari adabiy va texnik matnlar, kodlashtirilgan tasvirlar va hokazolardir. Fayl tushunchasi MS DOSda printer, klaviatura, displey va boshqalarga umumlashtiriladi.

Faylli tizim fayllarning o'zidan tashqari fayllarning nomini hosil qilish qoidalari va ularga murojaat etish usullari fayllarni boblarga bo'lishning pog'onali tizimi va fayllarni disklarda saqlash tizimasini o'z ichiga oladi. Fayl o'z nomi va atributlariga ega baytlardagi o'lchami, uni yaratish yoki so'nggi o'zgarish sanasi va vaqti bilan ifodalanadi.

Хулоса

Adabiyotlar ro`yxati:

- G'ulomov S.S., Shermuhamedov A.T., Begalov B.A.
- Iqtisodiy informatika. Toshkent - «O'ZBEKISTON», 1999.
- Гордеев А.В.Операционные системы. 2-е изд. Учебник. - СПб.: Питер, 2004.
- Alimov R.H., Yulchieva G.T., Sobirova D.A., Alishov Sh. «Informatika va axborot texnologiyalari» fani ma'ruza matnlari - T.: TDIU, 2005
- Gulyamov S.S., Alimov R.X va boshqalar. Axborot texnologiyasi va tizimlari. 2001.
- Alimov R., Alimov K., Abduvoxidov A. va boshqalar. Axborotlarni qayta ishlashning kompyuter texnologiyasi. T:-1999.
- Alimov R. va boshqalar. Axborot texnologiyasi. O`quv qo`llanma. T:-TDIU, 2004.
- Alimov Q., Abduvoxidov A va boshqalar. Zamonaviy axborot - kompyuter texnologiyalari. O`quv qo`llanma. T: - TDIU, 2004